

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA “OT” SO’Z TURKUMINING GRAMMATIK
BELGILARI USTIDA ISHLASH**

Mahliyo To'lanova

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning fikrlash doirasi, nutqiy kompitensiyasi, boshlang’ich sinflarda “Ot” so’z turkumini o’qitish, “Ot” so’z turkumining grammatik belgilari haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar nutq, ot, nutqiy rivojlanish, savod o‘rgatish davrida nutq o‘stirish, harf, bo‘g‘in, tovush, gap, matn, ongli o‘qish, so’z tarkibi.

Boshlang’ich sinflarda ot so’z turkumining grammatik belgilari ustida ishlanadi. Bunda quyidagi vazifalar bajariladi:

- a) “Ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- b) kim? so’rog’iga javob bo’lgan (shaxsni bildirgan) otlardan, nima? so’rog’iga javob bo’lgan (narsa, hayvon, jonvor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko’nikmasini hosil qilish;
- c) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo’yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko’nikmasini shakllantirish;
- d) otlarda son (otning birlik va ko’plikda qo’llanishi) bilan tanishtirish;
- e) otlarni egalik qo’shimchalarini bilan to’g’ri qo’llash ko’nikmasini shakllantirish;
- f) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo’shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- g) o‘quvchilar lug’atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o’rinli foydalanish malakasini o‘stirish;
- h) so’zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish hisoblanadi.⁶

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o’zaro bog’liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, “Ot” mavzusini o’rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo’lgan bir vazifani hal qilishga ko’proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-, 2- sinflarda so’z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so’roqlari, birlik va ko’plikda qo’llanishi) ni o’zlashtirishga, 3-sinfda otning egalik qo’shimchalari bilan qo’llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo’shimchalarini yozilishini o’rganishga e’tibor beriladi.

O’quvchilarning nutqi va tafakkurini o‘stirish vazifasi esa mavzuni o’rganishining barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materiallarni o’rganish va orfografik malaka hosil qilishni butun jarayoni o‘quvchilar lug’atini

⁶K.Qosimova va boshq. Ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent- 2009.136-b.

boyitishga bog'lanishi nutq malakalari va fikirlash qobilyatlarini o'stirishga qaratiladi.

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatic belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosи predmetni ifodalashidir. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon) yer va osmonga oid narsalar (tog', quyosh, yulduz, daryo), o'simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig'ilish, majlis, muhokama), tabiat hodisalar (shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiylilik), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o'rin va vaqt (yoz, bahor, joy), nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatic belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi. Kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fel bilan birika oladi. Otning ma'nolari va grammatic belgilari ancha murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni o'rganishga taylorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar predmetlarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosи (har bir so'z ma'no bildirishiga) e'tibor oshiriladi. Ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va boshqalarni bildirgan otlarni) guruhash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosи asosida guruhash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tamonlarini aniqlash, mavhumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatic tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning konkret ma'nosini yetarli bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatic belgilarini ham o'zlashtirishi zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatic belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim?, nima?). O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan nima so'rog'iga javob bo'lgan otlarni farqlashga o'rganadilar. Bu bosqichda ular so'zlarini so'roq berish bilan farqlashni o'rganadilar. Bolalarda grammatic tafakkur o'sa boradi. Bolalarda ko'pincha atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi. 2- sinfda otlarning leksik ma'nosи atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va tizmlashtiriladi; bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi.

"Ot" tushunchasini shakllantirish uchun shu so'z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik guruhlarga ajratish, barcha otlarga xos bo'lgan belgilarni ko'rsatish, ularni nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadlar mavzuni o'rgatishga bag'ishlangan 1- darslardayoq predmetlarni bildirgan so'zlar tizimga solinadi, kesimlarni buyum, o'simliklarni, hayvonlarni, tabiat hodisalarini, voqealarini bildirgan so'zlar guruhlarga ajratiladi. Shu so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan belgilar aniqlanadi: bu so'zlar predmetlarni bildirib kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifat va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan mavhum ma'nodagi (yaxshilik, go'zallik, ishonch, sevinch, o'kinch, qo'rqinch, tayanch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o'quvchilar qiziqib so'rasalar, otning bolalar o'rgangan belgilari asosida (nima? so'rog'iga javob bo'lishi, predmet nomini bildirishi) tushuntiriladi.

Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun o'qituvchi o'qish kitobidan matn tanlab, o'quvchilarga matndagi otlarni topishni, so'ogra, matnni shu so'zlarsiz o'qishni topshiradi. O'quvchilar matnni otlarni tushurib qoldirib o'qiganda, matn mazmunini tushunib bo'lmasligini anglaydilar. Xulosa chiqaradilar: ot atrofimizni o'rab olgan predmetlarning nomi, bu so'zlarsiz bir- birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

2- sinfda “Otlarda son” mavzusi ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi ustida ishlashda o'quvchilarda:

- 1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarni ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash;
- 2) birikmadagi otdan ko'plik sondagi ot va aksincha, ko'plikdagi otdan birlik sondagi otlar hosil qilish;
- 3) gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olib, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakllantiriradi.⁷

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushintiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: daftar-daftарlar, qalam- qalamlar, nok-noklar, qush- qushlar, gul-gullar kabi. Suhbat asosida daftar so'zi nechta (bitta) predmetni va daftарlar so'zi nechta (ikki va undan ko'p) predmetni bildirish aniqlanadi. Boshqa so'zlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va umumiylashtiriladi. Agar otlar bir predmetni bildirsa birlikda qo'llanadi, agar ikki va undan ortiq predmetni bildirsa ko'plikda qo'llaniladi. Ko'plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga “-lar” qo'shimchasi qo'yiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so'rog'iga, ko'plikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi.

Bu sinf o'quvchilariga faqat birlikda qo'llaniladigan otlar, birlik shaklida qo'llangan, qo'shin, xalq, oila, jamoa kabi otlar ko'plik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda anglatadigan ma'nosini maxsus tushuntirilmaydi. Agar o'quvchilar bu haqida savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishini kuzatish asosida so'z shakli ustida ishslashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar otlarni ko'plik qo'shimchasi bilan o'zgartirishi, ya'ni otga shakl yasochi qo'shimcha qo'shish bilan so'zning leksik ma'nosi o'zgarmasligiga ishonch hosil qiladilar.

O'qituvchi 2- sinfda “Otlarda son” bilan tanishtirish mavzusi yuzasidan ish olib borar ekan, o'quvchilarda bu tushunchani shakllantirish uchun ko'proq suhbat

⁷K.Qosimova, A. Ne'matova. 2- sinfda ona tili darslari. Toshkent. “Cho'lpon”, 2008. 7-bet.

metodidan foydalanishi samarali natija beradi. Bunda predmetlarni rasmlardagi buyumlar yoki jonivorlarni san'atidan boshlash zarur. Lekin shunga e'tibor berish kerak-ki, o'quvchilarda faqat “-lar” qo'shimchasi bilan ko'plikni hosil qiladi degan tushinchani hosil qilinishida ehtiyyot bo'lish kerak. Chunki, bolalar “-lar” qo'shimchasi bilan yasalgan ko'pikdagi ot bilan mazmuni ko'plikni anglatuvchi ot ham mohiyatan ko'plikni anglatishlarini tushinib yetishlari lozim.

2- sinf “Ona tili” darsidagi bu mavzuni yoritishi uchun ko'plab mashqlar berilgan o'qituvchi otlar son bilan tanishtririshda dars jarayonida quyidagicha ish olib borish mumkin.

Mavzu: Kimlar?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lган so'zlar. 8

O'qituvchi bu mavzu yuzasidan quyidagilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi: kim? nima? so'rog'iga javob bo'lган, yani bitta narsa va shaxsni bildirgan birlikda so'z va kimlar? nimalar? so'rog'iga javob bo'lган, yani ikki va bir necha narsa va shaxsni bildirgan ko'plikdagi so'z bilan amaliy tanishtirish.

Darsning borishi quyidagicha tartibda bo'ladi.

1. O'qituvchi tashkiliy qismidan so'ng uy vazifasini tekshirib, xato va kamchiliklarini to'ldiradi.

2. Yangi mavzuni tushintiradi: birdan ortiq narsa bilan uning nomi bo'lган so'zning farqini aniqlash maqsadida kuzatish olib boriladi.

Quyidagi topshiriqlar bajartiriladi:

–darslikda berilgan so'roqni o'qing (O'quvchilar o'qiydilar. Qanday so'zlar kimlar? so'rog'iga javob bo'ladi?) 164-mashq ustida ishlanadi.

– Birinchi rasmada kimni ko'ryapsiz?

–O'quvchini.

–Shu o'quvchilar haqida qanday so'raymiz?

– Kim?, deb so'raymiz.

–Ikkinci rasmada kimlarni ko'ryapsiz?

–O'quvchilarni ko'ryapmiz.

–Shu o'quvchilar haqida nima deb so'raymiz?

–Kimlar?, deb so'raymiz.

So'zlar izohlab yozdiriladi. Kim? o'quvchi, uchuvchi. Kimlar? o'quvchilar, uchuvchilar. O'quvchi suhbatni umumlashtiradi.

–Kim? so'rog'iga javob bo'lган so'zga bitta shaxsning nomini bildiradi.

2) Birinchi usul. O'qituvchi avval bitta, keyin ikkita va uchta qalam ko'rsatib so'raydi.

– Bu nima?

–Nechta qalam?

– Qalamning boshqacha nomi nima?

– Narsa – buyum.

⁸K.Qosimova, A. Ne'matova. Ona tili 2- sinf uchun darslik . Toshkent. “Cho'lpon”, 2016. 75-bet.

- Bular nimalar?
- Bular qalamlar.
- Nechta qalam?
- Ikkita (uchta).
- Bitta qalam ko’pmi yoki uchta qalam ko’pmi?
- Uchta qalam ko’p.
- Ko’p narsa – buyum haqida qanday so’raymiz?

Ruchka haqida ham shunga o’xshash suhbat o’tkaziladi. O’quvchilar so’zlarni izohlab daftarga yozadilar. Nima? – qalam, ruchka. Nimalar? – qalamlar, ruchkalar.

O’qituvchi suhbatni umumlashtiradi. Nima? so’rog’iga javob bo’lgan so’zlar bitta narsaning nomini bildiradi. Nimalar? so’rog’iga javob bo’lgan so’zlar bitta narsaning nomini bildiradi. Nimalar? so’rashga javob bo’lgan so’zlar bittadan ortiq (ikkita va undan ko’p) narsalar nomini bildiradi. Otlarning egalik qo’shimchalari bilan qo’llanishi va kelishik qo’shimchalari bilan o’zgarishi ham boshlang’ich sinflardanoq o’rgatila boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o’ttiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutq // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019 yil 22 oktyabr. – № 218. – B. 1-4.

2. Azimova I.A. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingistik asosi.//“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: O’TAU, 2019, 20-aprel. 219-bet.

3. Qosimova K., Matjonov S., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi.